

УДК 37

РОЛЬ УЧАЩИХСЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЭЛЕКТРОННО-ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СФЕРЫ УЧИТЕЛЯ

Г.И. Зарипова¹

Аннотация

В статье рассмотрена роль учащихся в формировании электронно-информационной образовательной сферы учителя.

Ключевые слова: электронный деканат, система электронной библиотеки, образовательный портал и сайт, тематический блок и форумы, телеконференции, электронные олимпиады и викторины.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkillashtirishda o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sohasida kirib kelishi pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo'lib qoldi. Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga mos keladigan hamda Davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»ning asosiy vazifalaridan elektron o'quv-uslubiy majmualarni yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, psixologik-pedagogik va metodik talablarni ishlab chiqish, elektron o'quv-metodik majmualaridan to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy elektron o'quv-metodik majmualarni tayyorlash bo'yicha strategik masalalar ko'lamini aniqlash belgilangan.

Yuqori sifatdagi va yuqori texnologik axborot-o'qitish muxitini yaratish, asosan, ta'lim tizimining texnologik bazasini tubdan isloh qilish, jamiyat talablariga javob beradigan ochiq ta'lim tizimiga o'tish imkoniyatini yaratadigan etarlicha murakkab bo'lgan texnik masala sifatida ko'riladi. Axborot-ta'lim muhitini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish uchun barcha ta'lim tizimining ilmiy-uslubiy, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarini to'liq ishga solish kerak bo'ladi. Zamonaviy axborot-ta'lim muxiti ishlatiladigan sharoitda pedagogika munosabatlarini ham hisobga olish lozim. Barcha axborot ta'lim muhitining nazariy yadrosi bo'lib pedagogik tizim hisoblanadi. Bunga «Elektron pedagogika» deb nomlanadigan yangi yo'nalish kiradi. Elektron pedagogikaning asosiy maqsadi shundan iboratki, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhitida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish. Elektron pedagogikaning predmeti pedagogik tizim hisoblanadi. Pedagogik tizim quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi, o'quvchi, ta'limning maqsad va vazifalari, o'qitish mazmuni, o'qitish shakl, usul va vositalari. Bunda axborot resurslarining tarkibi va mazmuni o'quv yurti tomonidan, servis xizmatlar to'plami namunaviy dasturiy ta'minot bilan belgilanadi. Elektron ta'lim har bir o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- o'quv-metodik ta'minoti joylashtirilgan elektron kutubxonadan foydalana olish;
- o'qituvchi bilan elektron pochta orqali muloqat qilish;
- har bir o'qitiladigan kurs bo'yicha telekonferentsiya;
- o'z virtual o'quv guruhining talabalari bilan muloqat qilish;
- on-line rejimda va bir qator imkoniyatlar bilan o'qituvchidan maslahat olish.

Ta'lim tizimida axborot ta'lim muhitining elektron dekanat, elektron kutubxona, elektron o'qitish tizimi (Masofaviy o'qitish), elektron nazorat tizimi (test nazoratlari) qo'llaniladi.

¹Zaripova Gulmira Ilxomovna, учитель, школа №11 Пешкунского района, Бухарской области, Узбекистан.

Elektron dekanat – o'quv guruhlar, mashg'ulotlar jadvali, o'quv jarayonining borishi yuzasidan nazoratni va boshqalarni shakllantirishdan iborat. *Elektron kutubxona tizimii* – o'quv-metodik ta'minotdan on-line rejimida foydalanish uchun o'quv-metodik ta'minotning o'quv jarayonida quyidagilarni to'plash va amalga oshirish hisoblanadi:

- matnli materiallar;
- audio va videomateriallar;
- elektron qo'llanmalar;
- grafik tasvirlar;
- o'quv kompyuter dasturlar;
- virtual laboratoriya praktikumlar.

Fan bo'yicha o'qitish jarayonida qo'llaniladigan elektron o'qitish tizimi (Elektron o'quv kurslar) yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Elektron o'qitish tizimi tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quv kurslarini tashkil qilish;
- ayrim fanlar bo'yicha o'quv guruhining Chat (on-line auditoriyalar – seminarlar va maslahatlar);
- fanlar bo'yicha telekonferentsiyalar (forumlar) (on-line auditoriyalar - seminarlar va maslahatlar);
- e'lonlar taxtasi.

O'quvchilar har bir o'qituvchining ishlash tajribasini xarakterlaydigan ma'lumotlar (anketa ma'lumotlari, ilmiy va pedagogik staj, asosiy ilmiy ishlar va yutuqlar hamda o'qituvchi o'z fayliga joylashtirishini zarur deb hisoblagan boshqa ma'lumotlar) bilan tanishishi mumkin. Elektron kafedrani qurish masalasi ham axborot-ta'lim muhitida keng imkoniyatlar yaratadi. Pedagogning kasbiy faoliyatini elektron axborot-ta'lim muhitida tashkil etish har bir pedagogdan katta ma'suliyat talab qiladi. Bugungi kun pedagogi har bir o'qitadigan fanini axborot-ta'lim muhitida tashkil etishi, undan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta'limiy portal va saytlar, mavzuli blok va forumlar, telekonferentsiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim xizmatlaridan, ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Internet ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zakirova F. va boshqalar. Elektron uquv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. -Toshkent: OUMTV. – 2010. – 64 b.
2. Fan va ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari [Text] : respublika ilmiy-amaliy konferentsiya ma'ruzlar to'plami. 2006 yil 6-7 aprel. - T. : TATU, 2006 - T. 1, 2, 3 - 2006. – 298 b.

© Г.И. Зарипова, 2018.